TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

J.A.Darmenov
NDPI dotsenti
E.S.Qalbaev
NDPI magistrantı

Annonatsiya: Maqolada tasviriy san’at darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va tasviriy san’at o’qituvchisining pedagogik jarayonining mohiyati, o’qituvchi hamda o’quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etishi haqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Tasviriy san’at, dars, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, o’qituvchi, o’quvchi.

Ta’limdagi innovatsion texnologiyalar o’rganishni tartibga solish va uni to’g’ri yo’nalishga yo’naltirish imkonini beradi. Yangiliklar yoki innovatsiyalar har qanday kasbiy inson faoliyatiga xosdir va shuning uchun tabiiy ravishda o’rganish, tahlil qilish va amalga oshirish ob’ektiga aylanadi. Innovatsiyalar o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi, ular alohida o’qituvchilar va butun jamoalarning ilmiy izlanishlari, ilg’or pedagogik tajribasi natijasidirInsonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo’lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o’rgatish - ularni komillikka etaklash yo’llarini, qonun - qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanlari qatorida tasviriy san’at fanini maydonga kelishiga sabab bo’lgan. Chunki, insonni ma’rifatli va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanlari qatorida tasviriy san’at fanining etakchiligida amalga oshiriladi.

Ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta’lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo’llaniladigan an’anaviy kategoriyalar bo’lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma’lum predmet, mutaxassislik yoki ihtisoslik

bo’yicha o’quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo’naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasidagi maqsadlarni ro’yobga chiqarish uchun etarli bo’lib kelgan. Muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar tomonidan barcha davrlarda amalga oshirilgan pedagog faoliyatining darajasi deya baholaganlar. Ular, xususan, pedagogik tushunchalarga berilgan ta’rif va tavsiflarning noaniqligi, ta’lim jarayonlarini tavsiflovchi ba’zi kategoriyalarning etishmasligi, ta’lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslubi va o’qitish vositalari o’rtasida o’zaro uzviylikning mavjud emasligi kabi holatlarni doimiy ravishda tanqid qilib kelganlar. Ular tomonidan “metodika” tushunchasi yuqori darajadagi sub’ektivlikka ega ekanligi ta’kidlanadi. Haqiqatda esa ta’lim natijalari o’quvchining pedagogik jarayonlardan muvafaqqiyatli o’tganligi bilan belgilanadi.

Tasviriy san’at o’qituvchisining pedagogik jarayonining mohiyati -o’qituvchi hamda o’quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o’quvchida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma’lum maqsadga yo’naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, uzviy tizim bo’lib, unda ta’lim maqsadlari asosida belgilangan ko’nikma va malakalar o’quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o’zlashtirish, ularda muayyan ma’naviy-ahloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma’lum bir tartibga solingan ko’rinishi sifatida aks etadi. Bu o’rinda tasviriy san’at o’qituvchisi ta’lim maqsadlarining belgilanishi, mazmunni tanlash va ishlab chiqish, ta’lim jarayonlarini tashkil qilish, ta’lim metol va vositalarining belgilanishi, shuningdek, o’qituvchilar malaka darajasi, erishilgan natijalarni baholash metodi inobatga olinshi lozim.

Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo’llanilishi o’quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.

Tasviriy san’at o’qituvchisi ta’lim texnologiyasini loyihalash jarayonida pedagogik vazifani qo’yadi va uni hal etishga alohida e’tibor berishi zarur. Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta’minlovchi o’qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o’qituvchi faoliyatining mazmuni metod, shakl va vositalar asosida shakllantiriladi. Tasviriy san’at o’qituvchisining pedagog faoliyati mazmunini belgilovchi asosiy omillar: boshqarish turi, axborot almashish jarayonlarining turi, axborot uzatish vositalarining tiplari va bilish faoliyatini boshqarishdir.

O’qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontseptsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanishi mumkin: dastlab o’quv materiali mazmunining tavsifi, uni o’rganishdan ko’zlangan maqsad (o’zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning shartlari tahlil etiladi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tatbiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondashuv, tanqidiy-ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Ayni vaqtda ta’lim muassasalari amaliyotida zamonaviy ta’lim texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda.

Demak, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim—tarbiya jarayonining zamonaviy ta’lim texnologiyasi va innovatsion texnologiyalari o’zida metodlar tizimi, ta’lim metodik usullari, maqsad, vositalari, o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikda faoliyat ko’rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalarga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Yo’ldoshev ”Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish”-T., 2008

2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To’raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015